
Turkiyaning “Eğitim Kalesi Okulları” maktabi va Rishton tumanining “Ibn Sino” xususiy maktabi oʻrtasida hamkorlik aloqalari oʻrnatildi

Rishton tumani hokimi Sufhonjon Soliev boshchiligidagi rasmiylar va tadbirkorlardan iborat tuman delegatsiyasi toʻgʻridan-toʻgʻri hamkorlik aloqalari oʻrnatish maqsadida bugun Turkiyaning Bursa viloyatidagi tashrifi davom etmoqda. Delegatsiya aʼzolari bugun shuningdek, Bursa viloyatidagi eng nufuzli taʼlim muassasalardan biri – “Eğitim Kalesi Okulları” maktabida boʻlishdi va maktab direktori Mustafa Sayik bilan uchrashishdi. Uchrashuv davomida “Eğitim Kalesi Okulları” va Rishton tumanidagi “Ibn Sino” xususiy maktabi oʻrtasida hamkorlik aloqalari oʻrnatildi. Imzolangan kelishuvga koʻra, taʼlim, tibbiyot, gumanitar va aniq fanlarga qiziquvchi yoshlarni ushbu maktabga yuborish masalalari muhokama qilindi. Kimyo va biologiya fanlari boʻyicha oʻqtish jarayonlari bilan tanishish maqsadida Rishton tumaniga tashrifi borasida ham kelishuvga erishildi. Uchrashuvda taʼlim tizimi toʻgʻrisida batafsil maʼlumot olindi, shuningdek, taʼlim jarayonini tashkil qilish, oʻquvchilarga yaratilgan shart-sharoitlar va mavjud muammolar toʻgʻrisida fikr almashildi. Tomonlar taʼlim sohasida hamkorlik aloqalarini oʻrnatishga, xususan pedagoglarning malakasini oshirish va maktablar oʻrtasida ilmiy almashinuvlarni yoʻlga qoʻyishga kelishib oldilar. Bundan tashqari, Turkiyadan Oʻzbekistonga xususan, “Eğitim Kalesi Okulları” maktabidan "Ibn Sino" maktabiga oʻqituvchilarni dars berish uchun yuborilishi borasida ham kelishuvga erishildi. Aytish joizki, bu Rishton tumani taʼlim tizimi uchun xorijiy davlat bilan birinchi hamkorlikdir. Oʻylaymizki, bunday hamkorliklar geografiyasi yildan yilga kengayadi. Rishton tumani delegatsiyasining Turkiyaga tashrifi davom etmoqda.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2022-06-24 18:38:51